



JAHON MAMLAKATLARIDA KOMPARATIVISTIK PEDAGOGIKANING FAOLIYATI VA VAZIFALARI

Gulnoza Almatova

Guliston davlat pedagogika instituti, Pedagogika va psixologiya kafedrası

Pedagogika yoʻnalishi 3-kurs 9-23-guruh talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada jahon mamlakatlarida komparativistik pedagogikaning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, zamonaviy faoliyati va asosiy vazifalari yoritilgan. Xususan, Yevropa, Osiyo va Amerika mamlakatlari taʼlim tizimlaridagi qiyosiy yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, YUNESKOning xalqaro miqyosda taʼlimni rivojlantirishdagi roli ham koʻrib chiqilgan. Maqolada komparativistik pedagogika fanining globallashuv sharoitida inson kapitalini rivojlantirishdagi oʻrni asoslab beriladi.

Kalit soʻzlar: komparativistik pedagogika, qiyosiy taʼlim, YUNESKO, Boloniya jarayoni, global taʼlim tizimi, xalqaro tajriba, pedagogik tahlil.

Kirish

Komparativistik pedagogika — bu turli mamlakatlardagi taʼlim tizimlarini qiyosiy oʻrganish, ularning umumiy va xos xususiyatlarini tahlil qilish orqali ilgʻor pedagogik tajribalarni milliy amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan ilmiy yoʻnalishdir. Ushbu fan zamonaviy taʼlim islohotlarining nazariy asosini tashkil etib, xalqaro taʼlim siyosati va metodikasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

1. Komparativistik pedagogikaning mazmuni va mohiyati

Komparativizm (lotincha comparativus — qiyosiy) soʻzi oʻxshashlik va farqlarni, tarixiy rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash, oʻxshash hodisalar



o'rtasidagi muvofiqliklarni o'rnatish va hokazolarni o'z ichiga olgan taqqoslash va taqqoslash degan ma'noni anglatadi. Ingliz tilida "taqqoslash" sozi "taqqoslash" degan ma'noni ham anglatadi.

Komparativistik pedagogika - bu umumiy va individual tendensiyalar, qonunlar va ta'lim rivojlanishining qonuniyatlari xususiyatlarini global, mintaqaviy, milliy va federal miqyosda taqqoslash fanidir.

Komparativistik pedagogika fani ta'limning global jarayonlari, milliy tizimlarning rivojlanish qonuniyatlari hamda ularning o'zaro ta'sirini o'rganadi. U o'z tabiatiga ko'ra ko'p tarmoqli fan bo'lib, falsafa, sotsiologiya, tarix, madaniyatshunoslik va siyosatshunoslik bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Mazkur fan ta'lim jarayonida taqqoslash, tahlil va umumlashtirish metodlariga asoslanadi.

Komparativistik pedagogikaning ob'ekti - ta'lim zamonaviy dunyoda shaxsning ijtimoiy-madaniy takror ishlab chiqarish jarayoni, shuningdek, global, mintaqaviy va milliy miqyosdagi ijtimoiy institutdir.

Komparativistik pedagogikaning predmeti jahon (xorijiy va mahalliy) pedagogik tajriba va hozirgi zamon milliy pedagogik madaniyatlarining holati, rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlari hisoblanadi.

Komparativistik pedagogikani tushunishning tortta yondashuvi ham uning mazmunining oziga xos xususiyatlarini tavsiflaydi.

Birinchidan, bu pedagogika fanining oziga xos sohasi.

Ikkinchidan, dunyoning turli mamlakatlari va mintaqalarida ta'lim, tarbiya, kadrlar tayyorlash, pedagogik nazariya va amaliyotning rivojlanish jarayonini organishga qaratilgan.

Uchinchidan, xorij tajribasidan foydalanish maqsadida qiyosiy tahlil olib boriladi.



Tortinchidan, milliy ta'lim tizimlarini ozaro boyitishning mumkin bolgan shakllari va usullari aniqlangan.

2. Komparativistik pedagogikaning asosiy maqsadi va vazifalari

Komparativistik pedagogika fanining maqsadi bolajak oqituvchilarni turli mamlakatlarning tarbiyaviy imkoniyatlarga boy milliy urf-odatlarini, ananalari, tarixiy, manaviy merosi, talim tizimini organish bilan birga ularning Komparativistik taqqoslash afzal tomonlarini taxlil qilish, shuningdek turli davlatlarda olib borilayotgan talim tarbiya borasidagi ishlardan keng qamrovda xabardor bolish, kelajakdagi ish faoliyatlarida amaliy ahamiyat kasb etuvchi pedagogik bilim, konikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat .

Komparativistik pedagogika quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- Turli mamlakatlarda ta'lim tizimlarining tarixiy va zamonaviy holatini tahlil qilish;
- Xorijiy tajriba va milliy tizim o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash;
- Ilg'or xorijiy metodlarni o'zlashtirish orqali milliy ta'limni modernizatsiyalash;
- Xalqaro ta'lim siyosati va tamoyillarini qiyosiy o'rganish;
- O'qituvchi kadrlar tayyorlashda global yondashuvlarni joriy etish;
- Ta'lim tizimini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini prognozlash.

3. Jahon mamlakatlarida komparativistik pedagogika faoliyati

Yevropa mamlakatlarida komparativistik pedagogika asosan Boloniya jarayoni orqali ifodalanadi. Osiyo mamlakatlari, jumladan Yaponiya va Koreya, o'z milliy qadriyatlarini xalqaro ta'lim metodlari bilan uyg'unlashtirgan. AQSHda esa "Comparative Education Review" jurnali orqali ta'lim tizimlari qiyosiy tahlil



qilinadi. YUNESKO esa savodsizlikni tugatish, uzluksiz ta'limni yo'lga qo'yish va o'qituvchilar malakasini oshirish yo'nalishida faoliyat yuritadi.

Yevropa mamlakatlari

Yevropa davlatlarida komparativistik pedagogika asosan Boloniya jarayoni orqali ifodalanadi. 1999-yildan boshlab 29 mamlakat tomonidan imzolangan ushbu deklaratsiya oliy ta'lim tizimlarining integratsiyasini ta'minladi. Kredit-modul tizimi, akademik harakatchanlik, o'qituvchi va talabalarning erkin almashinuvi Yevropaning yagona ta'lim makonini yaratishga xizmat qildi.

Osiyo mamlakatlari

Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreyada komparativ yondashuv milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda rivojlangan. Masalan, Yaponiya ta'lim tizimi "intizom va mehnatsevarlik" tamoyiliga asoslanadi, ammo u Yevropa metodologiyasi bilan birgalikda innovatsion shaklga ega (Kobayashi, 2022).

AQSH tajribasi

AQSHda "Comparative Education Review" kabi ilmiy jurnallar orqali turli davlatlarning ta'lim tizimlari o'rganiladi. Amerika olimlari P. Monro va F. Goodson komparativistik pedagogikaning ilmiy metodologiyasini shakllantirishda muhim hissa qo'shganlar.

YUNESKOning o'rni

1946-yilda tashkil etilgan YUNESKO xalqaro ta'lim siyosatini shakllantirishda markaziy o'rin tutadi. U savodsizlikni tugatish, uzluksiz ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, o'qituvchilar malakasini oshirish, ekologik va madaniy ta'limni rivojlantirish kabi vazifalarni amalga oshiradi. 1993-yilda O'zbekiston YUNESKOGa a'zo bo'lib, ushbu hamkorlik orqali ko'plab madaniy va ilmiy loyihalarda ishtirok etmoqda.



4. Komparativistik pedagogikaning bugungi kundagi ahamiyati

Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt davrida ta'lim tizimlari tezkor moslashuvni talab etmoqda. Shu sababli komparativistik tahlil milliy tizimlarni xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Talimning iqtisodiy ahamiyati ortishi bilan yirik ishlab chiqarish korxonalari, monopoliyalarining unga kuchliroq etibor bilan qarashiga olib keldi. Harbiy va rasmiy rahbarlarning talimga qiziqishi ortdi. Jahon mamlakatlaridagi talim tizimlari davlatlararo iqtisodiy raqobatda hal qiluvchi omilga aylandi. Iqtisodiy raqobatda yutqazib qoyishdan qorqish hissi xalq talimiga katta mablaglar ajratib, uni isloh qilishga unday boshladi. XX asrning 60-yillarida Garb mamlakatlarida shunday iqtisodiy raqobat amalga oshirildi. Mazkur jarayonlar insoniyatning bugungi ijtimoiy taraqqiyoti ehtiyojlarini qondirilishiga olib keldi.

Oqituvchi kadrlar tayyorlash , ularning nazariy-amaliy saviyasini muttasil oshirib borish , ba'zi mamlakatlarda muammo bolib hisoblangan xotin-qizlarning erkaklar bilan teng bilim olish xuquqlarini ta'minlash , ekologik ta'limni yolga qoyish , darslik va dasturlarni takomillashtirish , mamlakatlar ortasida ta'lim boyicha hamkorlikni butun choralar bilan rivojlantirish va juda kop boshqa masalalarni hal qiladi .

Bu faoliyatning barchasi yoshlarga jahon talablari ruhida ta'lim berish , ularni xalqaro hamkorlik , ozaro ishonch , dostlik , birodarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgandir .

Fan va texnikani rivojlantirish borasida Yunesko bir qator davlatlararo dasturni amalga oshirdi . Bu dastur asosan , ekologik muhitni yaxshilash , atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bogliqdir .



Hozirgi dunyoda millatlar va xalqlarning madaniy , tarixiy meroslarini asori atiqalarini asrash , avaylash , kelajak avlodlar uchun uni saqlash ta'mirlash ishlari katta ahamiyatga molikdir .Bu masalada Yunesko asosiy orinni egallaydi.

Xulosa

Jahon mamlakatlarida komparativistik pedagogika fanining rivojlanishi ta'limni modernizatsiyalash, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va madaniyatlararo integratsiyani kengaytirishga xizmat qilmoqda. U global ta'lim makonida ilg'or g'oyalar va metodlarni o'zlashtirish orqali yangi pedagogik paradigmani shakllantiradi.

Adabiyotlar

1. Abdulkarimov, X. A., & Nurumbekova, Y. A. (2025). Komparativistik pedagogika fanidan o'quv-uslubiy majmua. Guliston davlat pedagogika instituti.
2. Goodson, I. (2019). The Changing Curriculum: Studies in Social Construction. Routledge.
3. UNESCO. (2024). Education for Sustainable Development: Global Monitoring Report. Paris: UNESCO Publishing.
4. Xidirova, M. Q. (2025). Komparativistik pedagogika. Guliston: GDPIning nashriyoti.